

## **UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARI EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNINIG MAZMUN MOHIYATI**

**Kamolova Shohsanam Nuriddinovna**

Jizzax davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi,

**Fayziyeva Sojida Ilxom qizi**

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi 1- bosqich  
magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanish masalalariga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** Tabiat, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik ta'lim -tarbiya, atrof-muhit, vatanparvarlik.

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья является одной самых актуальных проблем нашего времени и фокусируется на важности обогащения мировоззрения студента. Рассмотрены вопросы, связанные с этапами развития человека.*

**Ключевые слова:** Личность, процесс, национальные ценности, универсальные ценности, мировоззрение.

### **ABSTRACT**

*This article is one of the most pressing issues of our time and focuses on the importance of enriching the student's worldview. Issues of human development are considered.*

**Keywords:** Man, process, national values, universal values, world view.

### **KIRISH**

Yoshlarni barkamol insonlar etib voyaga etkazish, yot mafkuralar, xurujlardan asrash, ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash ko'nikmalarini shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifalari belgilangan.

Bugungi kundagi barcha o'zgarishlar yaqin kelajakda davlatimizning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Jamiyatimiz taraqqiyoti ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatiga ko'tarilgan bir paytda hayotning o'zi har-bir kishidan, ayniqsa yoshlardan ma'naviy sog'lomlik va ma'rifiy etuklikni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 3-oktabrdagi PQ-3956-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. Bu qarorga ko'ra, Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish kun tartibidagi dolzarb masalaga aylangan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun chiroyli "Ona tabiat sandig'iga" toza suv, beg'ubor atmosfera havosi, juda boy er osti boyliklari, xilma-xil o'simlik va hayvanot dunyosi, go'zal tabiat manzaralarini yig'ib borish odatini milliy urfga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Ekologiya va inson, ularning o'zaro munosabatlari o'zaro ta'sir xususiyatlari qadimdan odamlarni qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Bizga ma'lumki, ekologik tarbiya masalasi bilan ilk bora qadimgi yunon mutafakkirlari shug'ullanishgan.

Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan, umumiy tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo'lishi sabablarini tushuntirib berishga harakat qilganlar. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ular asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'laganlar. Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375) "Havo, suv va quruqlik"- deb nomlangan traktatida odamlarning turli psixologik va jismoniy xususiyatlarini bevosita iqlim sharoiti bilan belgilanishi mumkinligini ta'kidlagan, ya'ni u geografik determenizm tamoyillini ilgari surgan.

Odamlarning oliy nerv faoliyati tiplari ularning vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishgan. Pifagor (Eramizdan avvalgi 570-500) fikriga ko'ra hayvon go'shti va yog'ini ko'p iste'mol qilinishi qattiqqo'lik va dag'allikni vujudga keltirishi va aksincha o'simlik mevalari

va sabzavotlarni mutassil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini suslashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi. Arestotel (eramizdan avvalgi 384-322) haddan ortiqcha issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydiganlar qattiqqo'l, shavqatsiz bo'ladi deb hisoblagan. Qadimgi YUnonlar madaniyatida inson demurg, yaratuvchi sub'ekt sifatida qadriyat kabi e'zozlangan: xususan, qadimgi quruvchilar yo'l o'tkazayotganda tog' duch kelib qolsa sharq quruvchilari kabi tog'ni aylanib o'tmasdan uni yorib yo'l o'tkazishga harakat qilganlar. SHarqda esa tabiatga nisbatan biologik, ya'ni ekologik munosabat mavjud bo'lgan. SHarqda tabiatga tirik organizm kabi munosabatda bo'lish hukmronlik qilgan. [1.12]. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon ekologiya muammosi hammani o'ylantirib keladi.

Abu Nasr Farobiyning ko'plab asarlarida inson ekologiyasi muammolari etakchi o'rin tutadi. Jumladan, olimning "Inson a'zolari haqida" nomli asarida inson a'zolariga xos bo'lgan turli kasalliklarning kelib chiqish sabablarini alohida-alohida o'rganish, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e'tibor berish zarurligiga diqqat qaratilgan. Binobarin, insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhit ta'siriga bog'liq, bu jarayonlar zamonaviy ekologiya fanining asosini tashkil etadi.

Ekologik bilimlar rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlardan yana biri Abu Rayhon Beruniy bo'ladi. Beruniy tomonidan 152 ta asar yozilgan bo'lib, ulardan tabiiy muhitdagi dialektik rivojlanishning ilmiy asoslari yoritilgan. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindison" asarlari Abu Rayhon Beruniyning jahonga mashhur asarlari sanaladi. Ularda yosh avlod uchun o'ta muhim bo'lgan o'simlik va hayvonlarning tuzilishi, ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bu manbalarda turli tropik o'simliklar va hayvonlar to'g'risida ma'lumotlarning keltirilishi nabobat va hayvonot olamining tashqi muhit bilan aloqasini, yil fasllari almashinuvining o'simlik va hayvonot olamiga ta'sirini yoritishga xizmat qilgan. Chunonchi, "qushlarning tog'lardan pastga, tekisliklarga tushishi, chumolilarning o'z inlariga berkinib olishlari havoning sovishidan dalolat beradi"- deydi olim.

Alloma insonni tabiatning bir qismi deb hisoblash bilan birga ularning turli irqqa mansubliklarini quyidagicha izohlaydi: "Odamlar tuzilishlarining rang, sur'at, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turliligidan emas, balki tuproq, suv, havo va erna, odam yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir[3.63]. Bugungi kunda yoshlarni ekologik tasavvurlarini tarbiyalash, ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish muhim vazifalardan biridir. Abu Nasr Farobiyning insoniyat tomonidan tabiatga ko'rsatilayotgan ta'sirning doimiylik kasb

etishini, tabiiy va sun'iy tanlanish muammosini atroflicha baholash zarurligi haqidagi fikrlari e'tiborga molikdir. Olimning nuqtai nazariga ko'ra, borliqdagi mavjud narsalar abadiy emas, ya'ni "Ular abadiy-boqiy bo'la olmaydilar, chunki ular havo, suv, tuproq va olovga bo'linadilar, birlari boshqasiga aylanadilar va balki har bir unsur boshqasida mavjuddir. Misol tariqasida hayvonot dunyosini oladi, u to'rt unsurdan biridir". [2.19].

Ekologik tafakkur, ekologik madaniyat va milliy o'zini-o'zi anglash-shallantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan o'zaro bog'liq jarayonlardir.

"Ekologik tafakkur", "ekologik ong" negizida inson tabiat kuchlarini tushunish va ular ustidan o'z hukmronligini o'tkazishdan oldin unga qadriyat sifatida qarash, uning bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zaruriyatini anglash imkonini beradigan yangi obrazlar va belgilar tizimini yaratadi.

"Pedagogika fanidan izohli lug'at"da "madaniyat" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: madaniyat – insonning egallagan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, boshqalarga zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy xodisadir.

Ekologik madaniyat-kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasidagi bilimlarga egaligi, jahon va xududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligi va boshqalar. [5.173, ]. SHu bilan birga individual ekologik tasavvurlar tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishish tajribasiga mos ravishda shakllanadi, alohida olingan individning tajribasi esa sotsiumning tabiat bilan bo'lgan munosabatlar xususiyatlari bilan belgilanadi. Mazkur xususiyatlar maishiy ekologik tasavvurlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular o'z navbatida, ekologik jihatdan ahamiyatli vaziyatlardagi xulq-atvorning konkret shakllarini tanlash bilan bevosita bog'lanadi. Umumta'lim maktab O'quvchilarni ma'naviy boy, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab, ularning ekologik madaniyat darajasining shakllanganligini aniqlash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tasavvurlarini mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish asosan psixik jarayonlar asosida kechadi. Tabiatga muhabbat ulkan va murakkab xissiyotdir. U bolaning ruhiy va aqliy dunyosini o'z ichiga oladi va murakkab jarayonni hosil qiladi. Bu xissiyotni tarbiyalashni bolaning esini taniy boshlaganidan tarbiyalab borsak, unda tabiatga muhabbat, tuyg'ular shakllanadi. Bolalikda tug'ilgan bu hislar maktab yillari shakllanib boyiydi va unga tabiatshunoslik darsi yordam beradi. O'quvchi tabiat go'zalligini qabul qilibgina qolmasdan balki, uni muhofaza qilishni va uni ko'paytirishni ham o'rganadi. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya

berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatini shakllantirishdan iboratdir. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichida pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasidan kelib chiqadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda bu kabi harakatlar tabiatni asrash, ekotizimning mavjudligini saqlab qolish yo'lidagi urinishlarning bir qismidir. Uning eng katta qismi esa butun insoniyat e'tiborini ushbu muammoga qaratish, ularni birgalikda, o'zaro hamjihatlikda tabiatni muhofaza qilishga undashdir. Bularning barini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish kutilgan natijalarni beradi. Shuni hisobga olib, ekologik ta'lim-tarbiyani, asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur. Boshlang'ich ta'lim tabiatshunoslik darslarida vatanparvar va ekologik tarbiya berishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish kerak. Shuning uchun har-bir sinfda osondan murakkabga tomon tamoyiliga asosan 1-2 sinf "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinf "Tabiatshunoslik" darsida o'quvchilarda boshlang'ich Vatanparvarlik va ekologik tarbiyani shakllantirishda mavzuga oid ko'rgazmali qurollardan, videolavhalardan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, o'quvchilarni tabiat, butun borliq haqidagi dastlabki tushunchalarini shakllantirish birmuncha oson kechadi, dars samaradorligi va natijasi yuqori bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat, Vatanga muhabbat, ona tabiatga nafasat tuyg'ulari shakllanadi.

### **REFERENCES**

1. Doktorov B.Z., Safanov V.V., Firsov B.M. Uroven osoznaniya ekologicheskix problem: profili obshchestvennogo mneniya //Sotsiolog. issled.1992 -12 s.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: YO'zuvchi, 2002. – 19 b.
3. Abu Rayhon Beruniy. Meneralogiya.M.:1963 -63b

4. Ho‘janazarov O‘E., YAkubjonova SH.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish//Toshkent. 2018 y. 3b.
5. Hasanboyev J. va b. Pedagogika fanidan izohli lug‘ati. T.: “Fanva texnologiyalar” nashriyoti 2008. – 173 b.
6. Shirin Kamolova, SAMOVOSPITANIE – OSNOVA FORMIROVANIYA GARMONICHNO – RAZVITOGO POKOLENIYA , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education
7. Shirin Kamolova, PREEMSTVENNOST FORMIROVANIYA MIROVOZZRENIYA STUDENTOV NA OSNOVE OBIQCHELOVECHESKIX SENNOSTEY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
8. Shirin Kamolova, THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 2 (2021): Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii (oktyabr)
9. Shirin Kamolova, O‘QITUVCHI PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: Tom 2 № 5 (2022): Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii (yanvar)
10. Shirin Kamolova, ISPOLZOVANIE INTERAKTIVNIX METODOV V OBRAZOVANII YAVLYAETSYA TREBOVANIEM SEGODNYASHNEGO DNYA , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 2 (2021): Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii (oktyabr)
11. Shirin Kamolova, AVESTODA AXLOQIY IDEAL VA UNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KO‘RINISHLARI , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari (Noyabr)
12. Shirin Kamolova, IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL ETHICS IN FUTURE TEACHERS , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari (Noyabr)